

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI
SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**Surxondaryo
viloyatida
kichik tadbirkorlik**




2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- aprel holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **21,5** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **3,7** mingtaga kamaygan yoki **14,5 %** ga qisqargan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **8,6** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar-martida **926** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **32,5 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- aprel holatiga, faoliyat yuritayotganlar soni jami **21 526** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **926** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Termiz shahrida **3 908** tani yoki jamiga nisbatan **18,2 %** ni tashkil etdi.

2019-2023- yillarning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **8,6** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **3,4** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkichi Termiz tumanida **20,6** birlik, Termiz shahrida **19,8** birlik, Boysun tumanida **11,1** birlik, Bandixon tumanida **10,7** birlik va Sherobod tumanida **10,5** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.		2023- y.
64	Angor	39
67	Bandixon	21
118	Boysun	20
149	Denov	82
106	Jarqo'rg'on	71
75	Muzrabot	44
59	Oltinsoy	50
65	Qiziriq	74
106	Qumqo'rg'on	43
74	Sariosiyo	55
87	Sherobod	109
77	Sho'rchi	63
55	Termiz	40
208	Termiz sh.	173
62	Uzun	42


2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da



2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri - **18,7 %**, Sherobod tumani - **11,8 %**, Denov tumani - **8,8 %**, Qiziriq tumani - **8,0 %**, Jarqo'rg'on tumani - **7,7 %**, Sho'rchi tumani - **6,8 %**, Sariosiyo tumani - **5,9 %** hissalariga to'g'ri keldi.,

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2022-2023- yillarning 1- aprel holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




2023- yilning 1- aprel holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **402** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **107** ta, sanoatda **130** ta hamda qurilishda **79** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023- yillarning 1- aprel holatiga yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning 1 aprel holatida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *birlik*



So'ngi yillarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida, 2019-2023- yillarning yanvar-mart oylarida jami **6 869** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **2 621** ta (yoki **38,2 %**), sanoat sohasida - **1 311** ta (yoki **19,1 %**), xizmatlar sohasida - **1 250** ta (yoki **18,2 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **1 093** ta (yoki **15,9 %**) va qurilish sohasida - **594** ta (yoki **8,6%**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘nggi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	66	8,5
Sitrus mevalar etishtirish	70	9,0
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	56	7,2
Sabzavotlar yetishtirish	71	9,1
Donakli va po‘choqli urug‘I bo‘lgan mevalar etishtirish	71	9,1
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	159	21,2
To‘qilgan va tirkotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	41	5,5
Mo‘ynali kiyimlardan tashqari kiyimlar ishlab chiqarish	66	8,8
Mebellar ishlab chiqarish	48	6,4
Beton, gipsi va sementdan buyumlar ishlab chiqarish	127	16,9
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	71	24,6
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	126	43,6
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	48	16,6
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	8	2,8
Avtomobil yo‘llari qurilishi	27	9,3
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda chakana savdosi	328	23,5
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	82	5,9
Ixtisoslashgan do‘konlarda farmatsevtika tovarlari chakana savdosi	77	5,5
Ixtisoslashgan do‘konlarda oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	177	13,0
Boshqa ixtisoslashgan ulgurji savdo	118	8,5
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	98	12,9
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo‘yicha xizmatlar	105	13,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	58	7,6
Avtomobil transportida yuk tashish	36	4,7
Mexmonxonalar va yashash joylari	31	4,1

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, so'nggi 3 yilda eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashmagan do'konlarda chakana savdosi yo'nalishida **328 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining **23,5 %** ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'nggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'nggi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va beton, gipsi va sementdan buyumlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish va qurilish loyihalash ishlari ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023- yilning yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,0 %** ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **0,2** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **98,7 %** ni, yo'lovchi tashishda **98,1 %** ni, savdoda **96,9 %** ni, qishloq xo'jaligida **96,0 %** ni va qurilishda **89,9 %** ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **764,5** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (**122,3** mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (**91,6** mlrd. so'm), Muzrabot (**86,1** mlrd. so'm), Sho'rchi (**86,0** mlrd. so'm) va Denov (**76,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qiziriq tumanida (**13,8** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **42,9 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (**100,0 %**), Muzrabot tumani (**97,2 %**), Boysun tumani (**91,0 %**), Angor tumani (**89,6 %**), Oltinsoy tumani (**70,3 %**), Qumqo'rg'on tumani (**67,0 %**), Sariosiyo tumani (**56,8 %**), Termiz shahri (**53,7 %**), Termiz (**46,1 %**) va Sho'rchi (**43,6 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 312,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **89,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **103,4 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (**399,6** mlrd. so'm), Denov (**138,2** mlrd. so'm), Sariosiyo (**120,6** mlrd. so'm), Termiz (**100,0** mlrd. so'm), Sherobod (**68,6** mlrd. so'm), Boysun (**64,3** mlrd. so'm) hamda Jarqo'rg'on (**62,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **1 628,3** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **54,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **102,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Termiz shahri (**307,1** mlrd. so'm), Termiz (**211,8** mlrd. so'm), Denov (**174,8** mlrd. so'm), Sariosiyo (**144,1** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**101,3** mlrd. so'm), Boysun (**95,3** mlrd. so'm) hamda Angor (**84,2** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-mart oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **3 142,5** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **96,0** % ini tashkil etdi. O‘shir sur‘ati 2022- yilga nisbatan **103,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Denov (**515,4** mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**297,0** mlrd. so‘m), Angor (**283,8** mlrd. so‘m), Qumqo‘rg‘on (**276,9** mlrd. so‘m), Sariosiyo (**274,0** mlrd. so‘m) hamda Sherobod (**262,0** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3 796,3** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **96,9 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **103,3 %** ni tashkil qildi.

2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da

Denov	831,1
Termiz sh.	638,9
Sho'rchi	376,7
Sherobod	220,3
Jarqo'rg'on	206,5
Uzun	186,0
Oltinsoy	180,3
Qiziriq	179,5
Qumqo'rg'on	178,3
Angor	175,6
Boysun	171,1
Muzrabot	168,2
Sariosiyo	147,2
Termiz	80,5
Bandixon	56,1




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov (**831,1** mlrd. so'm), Termiz shahar (**638,9** mlrd. so'm), Sho'rchi (**376,7** mlrd. so'm), Sherobod (**220,3** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**206,5** mlrd. so'm) va Uzun (**186,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 171,3** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **63,2** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **103,4** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Termiz shahri (**429,5** mlrd. so'm), Denov (**270,6** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**138,6** mlrd. so'm), Sariosiyo (**136,3** mlrd. so'm), Sherobod (**135,6** mlrd. so'm), Sho'rchi (**131,5** mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (**129,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.





Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.

Ulushi, % da




2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **28 662,1** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **65,4 %** ini tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida - **100,0 %**, Boysun tumanida - **100,0 %**, Qiziriq tumanida - **100,0 %**, Oltinsoy tumanida - **100,0 %**, Sariosiyo tumanida - **100,0 %**, Muzrabot tumanida - **100,0 %**, Angor tumanida **98,4 %** va Qumqo'rg'on tumanida - **93,8 %**, eng past ko'rsatkich Sherobod tumanida - **29,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **28 594,6** ming AQSH dollarini yoki jami importning **90,5** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi. % da

2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida - **100,0** %, Boysun tumanida - **100,0** %, Bandixon tumanida - **100,0** %, Qumqo'rg'on tumanida - **100,0** %, Muzrabot tumanida - **100,0** % va Sherobod tumanida - **100,0** % ni tashkil etdi.

Qiziriq 100,0

Boysun 100,0

Bandixon 100,0

Qumqo'rg'on 100,0

Muzrabot 100,0

Sherobod 100,0

Uzun 99,4

Oltinsoy 99,0

Denov 95,5

Termiz sh. 93,7

Jarqo'rg'on 92,6


Termiz 89,8

Sho'rchi 82,4

Angor 62,9


Sariosiyo 48,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **83,1 %** ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **133,1 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,2 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **99,4 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,1 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,8 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,7 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,3 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **940** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **235 (25,0 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **626 (66,6 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **79 (8,4 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,2 % (387 ta)**, xizmatlar sohasida - **25,9 % (243 ta)**, sanoatda - **13,5 % (127 ta)**, qurilishda – **11,7 % (110 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **7,7 % (73 ta)** ni tashkil etdi.

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (152 ta), Denov (116 ta), Jarqo'rg'on (92 ta), Qumqo'rg'on (66 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning I choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda - **29,5 %** ni, xizmatda - **28,8 %** ni va qurilishda - **24,5 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi sanoatda - **78,0 %** qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida - **72,6 %** ni, qurilishda - **68,2 %** va xizmatlar sohasida - **64,6 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida - **16,4 %** ni, sanoatda - **9,4 %** ni, savdoda - **8,0 %** ni va qurilishda - **7,3 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda - **70,9 %** ni, sanoatda - **63,0 %** va savdoda - **60,7 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **49,4 %** ni, xizmatlar sohasida - **40,8 %** ni va sanoatda - **35,4 %** va tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **2,7 %** ni, savdoda - **2,3 %** ni va qurilishda - **1,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	33,4	50,4	16,2
Band bo'lganlar soni	23,7	61,4	14,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	30,6	55,5	13,9
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	29,6	56,6	13,8
Raqobat muhiti	37,3	50,3	12,4

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	61,0	37,8	1,2
Band bo'lganlar soni	48,9	50,5	0,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	54,6	44,2	1,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	55,2	43,8	1,0
Raqobat muhiti	58,5	40,8	0,7


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Tel.: +998 (76) 225-65-68